



STATE OF NEW YORK  
OFFICE OF THE ATTORNEY GENERAL

ERIC T. SCHNEIDERMAN  
BOSH PROKUROR



NEW YORK STATE EDUCATION DEPARTMENT  
THE UNIVERSITY OF THE STATE OF NEW YORK

MARYELLEN ELIA  
TA'LIM KOMISSARI  
NYU-YORK SHTATI UNIVERSITETI PREZIDENTI

2017-yil 17-fevral

Federal hukumat amaldorlarining immigratsiyaga oid hatti-harakatlari butun mamlakat bo'ylab qo'rquv va vahimalarga sabab bo'ldi. Ham idoralarimiz, ham Nyu-York shtati boshqaruvchilar kengashi xizmat ko'rsatish majburiyatini olgan Nyu-York shtati aholisi ushbu hatti-harakatlardan xavotir bildirib, savollar bilan idoralarimizga murojaat qilmoqda. Bugun Nyu-York shahri bosh prokuraturasi ("BP") va Nyu-York shtati Ta'lim departamenti ("SHTD") butun Nyu-York shtatidagi o'quvchilar, maktablar, oilalar va hamjamiyatlarga yana bir karra ta'kidlab aytadiki, maktablarimiz barcha o'quvchilar bexavotir ta'lim oladigan maskan bo'lib qoladi.

Nyu-York shtatining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuniga asosan, besh yoshdan katta va o'rta maktabni bitirganlik diplomini olmagan 21 yoshdan kichik bolalar o'zлari yashaydigan maktab okrugidagi davlat maktablarida haq to'lamasdan o'qish huquqiga ega. Bundan tashqari, maktab okruglari majburiy maktab yoshidagi barcha o'quvchilar darslarga to'liq qatnashishini ta'minlashi shart.<sup>1</sup> **AQSH fuqarosining farzandlari singari hujjatsiz bolalar shtat qonunlarida belgilab qo'yilgan yosh va istiqomat qilish talablariga mos kelgan hollarda maktabda to'liq o'qish huquqiga ega.** AQSH Oliy Sudi bir necha o'n yillar oldin "*Plyler v. Doe*" apellytasiyasida belgilab qo'yanidek, maktab okruglari o'zlarining yoki ota-onasi va yoki vasiylarining hujjati yoki fuqarolik maqomi bo'lmasdan o'quvchilarning bepul davlat ta'limi olishini rad etishi mumkin emas.<sup>2</sup>

Binobarin, BP va SHTD maktab okruglariga yo'llagan yo'riqnomasida hujjatsiz o'quvchilarning ushbu muhim huquqini alohida ta'kidlab, maktablar ro'yxatga olish vaqtida o'quvchilarning immigratsiya maqomini oshkor qilish mumkin bo'lgan ijtimoiy ta'minot kartasi raqami singari savollar bermasligi kerakligini uqtiradi.<sup>3</sup> Yana shuni maslahat berdikki, maktab

<sup>1</sup> Qarang: Ta'lim Qonunning 3202(1)-, 3205-bandlari.

<sup>2</sup> *Plyler v. Doe*, 457 U.S. 202 (1982); yana *Appeal of Plata*, 40 Ed. ga qarang. Departament vakili 552, 14,555-qaror.

<sup>3</sup> Qarang, masalan, Cosimo Tangorra, Jr., "Dear Colleague" Letter, Nyu-York shtati Ta'lim departamenti (2014-yil 10-sentabr),  
<http://www.p12.nysesd.gov/sss/documents/EducationalServicesforRecentlyArrivedUnaccompaniedChildren.pdf>.

okruglari shtat va/yoki federal qonunlarga ko'ra ma'lum ma'lumotlar yig'ishi kerak bo'lsa, bu ishni o'quvchi maktabga qabul qilingandan keyin qilishlari lozim, o'shanda immigratsiya maqomiga oid ma'lumot maktabga qabul qilish-qilmaslik uchun kerak bo'ldi degan taassurot qolmaydi.<sup>4</sup>

Yaqinda idoralarimizga mакtab okruglarining AQSH Immigratsiya va bojxona politsiyasi ("IBP") vakillari so'rovlariga javob berish majburiyati, jumladan, o'quvchilar bilan uchrashish yoki suhbatlashish va yoki o'quvchilarga oid ma'lumotlar bilan tanishish so'roviga oid savollar kelib tushdi. Sizga ma'lumki, Nyu-York shtatining "Oila ishlari bo'yicha sud to'g'risida"gi qonuni ("NYFCA") va "Oilanning ta'lim olish huquqlari va ma'lumotlari sir saqlanishi to'g'risida"gi federal qonun ("FERPA") singari turli qonunlar okrug maktablariga huquqni muhofaza qilsih idoralari o'quvchilarni maktabda so'roq qilishi, o'quvchilar haqidagi ma'lumotlar sir tutilishiga oid huquqiy majburiyatlar yuklaydi. Bunday majburiyatlarni buzgani, hatto federal immigratsiya idoralari so'rovini bajargani uchun mакtab okruglari javobgarlikka tortilishi mumkin. Shu sababga ko'ra, idoralarimiz barcha mакtab okrugi xizmatchilarini federal immigratsiya xizmati xodimidan biror so'rov olishi bilanoq boshqaruvchilari va mакtab huquqshunoslari bilan bog'lanishini so'raydi. Bunday so'rovga javob berishdan oldin mакtab okrugi xizmatchilarini bunday so'rovni bajarish mакtab okrugi umumiyl qo'llanuvchi qonunni buzgan-buzmayotganini bilish uchun boshqaruvchilari va huquqshunoslari bilan maslahatlashib olishi zarur.

*O'quvchilar bilan uchrashish yoki suhbatlashishi to'g'risidagi so'rovlar. SHTD ancha vaqtдан beri huquqni muhofaza qilish idoralari xodimlari o'quvchini mакtab binosidan tashqariga chiqara, ota yoki onasi, ota yoki onasiday aloqada bo'lgan shaxsning roziligid so'roq qila olmaydi, deb hisoblaydi,* bundan juda cheklangan holatlar mustasno (masalan, huquqni muhofaza qilish idoralari xodimlarining qonuniy kuchga ega buyrug'i bo'lganda yoki mакtab mulkiga nisbatan jinoyat sodir etilganda).<sup>5</sup> Mакtab xodimlari huquqni muhofaza qilish idoralari bilan qonun va mакtablarning mahalliy qoidalari doirasida hamkorlik qilishga chaqiriladi. Yana shuni qat'iy tavsiya qilamizki, mabodo IBP yoki boshqa federal immigratsiya xizmatlari xodimlari o'quvchilar bilan uchrashish (suhbatlashish va/yoki so'roq qilish) uchun mакtabga kelsa, mакtab okrugi yo'l-yo'r iq olish, xususan, "Talim to'g'risida"gi qonun, "Plyler" va NYFCA-da belgilab berilgan burchlar to'g'risida ma'lumot olish uchun zudlik bilan boshqaruvchi va mакtab okrugi huquqshunosiga murojaat qilishi shart.

<sup>4</sup> Ijtimoiy ta'minot hujjati haqida shuni qayd etish lozimki, SHTD okruglardan o'quvchilarning ijtimoiy ta'minot kartalari yoki ularning raqamlarini hech qachon hech bir maqsad uchun o'quvchi maktabga qabul qilinishidan oldin ham, undan keyin ham yig'maydi.

<sup>5</sup> *Masalan, qarang:* N.Y.S.E.D. Advokatning 91-xulosasi (1959-yill 17-iyun) ("hech bir xodim bolani dars paytida mакtabdan tashqariga uning ota-onasi so'roq qilishga ruxsat bermaguncha olib chiqishi mumkin emas"); *yana qarang:* N.Y.S.E.D. Advokatning 148-xulosasi (1965-yill 23-fevral) ("Mакtab huquqni muhofaza qiluvchi idoralar xodimlari yoki uchinchi shaxslarga o'quvchilarni so'roq qilish yoki boshqa biror maqsadda binolardan tashqariga olib chiqish vakolatini beradigan vasiylikka ega emas"). Ushbu pozitsiya turli qonunlar, jumladan, boshqalari qatorida NYFCA-ga asoslanadi, u o'z navbatida politsiya xodimi 16 yoshga to'limgan bola huquqni muhofaza qilish idorasiga olib ketilayotganda tezda uning otasi yoki onasi va yoki unga qarovchi boshqa kishi bilan bog'lanishi, so'ngra agar uning otasi yoki onasi va yoki vasiyi o'sha yerda bo'lsa, ularga bolaning huquqlarini tushuntirishi va so'roqda qatnashishiga ruxsat berishi kerak. *Qarang:* N.Y. "Oila ishlari bo'yicha sud to'g'risida"gi qonunning 305.2-band; *Matter of Jimmy D.*, 15 N.Y.3d 417 (2010).

*O'quvchining o'qishi bo'yicha qaydlar bilan tanishishga oid so'rovlar.* Shu singari, idoralarimiz maslahatiga asosan, immigratsiya xizmati xodimlari o'quvchining o'qishi bo'yicha qaydlar bilan tanishishga oid so'rov bilan murojaat qilganda, maktab okruglari bunday so'rovni ma'lumotlarni oshkor qilish orqali bajarish FERPA qonunini buzishi mumkinligi sababli zudlik bilan huquqshunoslari bilan maslahatlashishi lozim.<sup>6</sup> Umuman olganda, FERPA federal byudjetdan moliyalashtiriladigan maktab okruglariga o'quvchining o'qish bilan bog'liq ma'lumotlarida mavjud "Shaxsni tasdiqlovchi ma'lumotlari"ni ("ShTM") uning otasi yoki onasi va yoki ruxsat berish huquqi bo'lgan o'quvchining ruxsatisiz oshkor qilishni ta'qiqlaydi. Mabodo oshkor qilish qonunosti hujjatlarida ko'rsatilgan muayyan cheklov shartlariga mos kelsa, FERPA qonuniga asosan ruxsat olmay turib, bunday oshkor qilishga ruxsat etiladi. Bunday cheklangan shartlar federal hukumatning zikr etilgan xodimlari bergan so'rovlarni ichiga oladi<sup>7</sup>. **Ammo IBP yoki boshqa federal immigratsiya xodimlarining o'quvchining o'qishi bilan bog'liq ma'lumotlarida mavjud SHTM bilan tanishish haqiqidagi so'rovi FERPA- qonunida zikr etilgan istisnoli holatlarning birortasiga mos kelmasa, ota yoki ona va yoki ruxsat berish huquqi bo'lgan o'quvchi bu ishga ruxsat berishi shart.**<sup>8</sup>

Ta'lism to'g'risidagi qoidalarning P-12 ga tegishli SHTD idorasi ham bugun maktablar va okruglar uchun "Barcha o'quvchilarining qadr-qimmati to'g'risida"gi qonunga ("DASA") keyingi haftalarda butun mamlakat maktablaridagi ta'qib qilish kabi noxush holatlardan kelib chiqib, yo'riqnomalar chiqarmoqda. Yo'riqnomaga bilan quyidagi havola orqali tanishish mumkin: <http://www.p12.nysesd.gov/dignityact/documents/dasa-guidance.pdf>.

Federal hukumat immigratsiyaga oid qanday harakatlar qilishi mumkinligiga oid ko'plab savollar ko'tarilayotgan paytda biz ta'lism sohasi xodimlari va hukumat amaldorlari sifatida maktab hamjamiyatlariga bag'rikenglik muhimligini, barcha o'quvchilarining maktabga borib jazolanish borasidagi qo'rquv va havotirsiz ta'lism olish huquqi borligini eslatib qo'yishimiz muhim ahamiyatga ega. Sinf xonalarimiz barcha bolalar uchun xavfsiz maskan bo'lib qolishi shart. Barchangizga o'quvchilarimiz, oilalarimiz va hamjamiyatlarimizni qo'llab-quvvatlash yo'lida qilayotgan ishlaringiz uchun minnatdorlik bildiramiz.

Hurmat bilan,



MaryEllen Elia  
Ta'lism komissari



Eric T. Schneiderman  
Bosh prokuror

<sup>6</sup> Qarang: 20 U.S.C. § 1232g.

<sup>7</sup> 34 C.F.R. §99.31(a)(3) ga ko'ra, bunday hujjatlar AQSHning Bosh molivaviy nazorat boshqarmasi boshlig'i, AQSH Bosh prokurori, AQSH Ta'lism vaziri yoki shtat va mahalliy ta'lism idoralarining vakolati bor vakillariga 34 C.F.R. §99.35 talablariga bo'ysungan holda oshkor qilinishi mumkin.

<sup>8</sup> Qarang: 34 C.F.R. § 99.31.